

IX
9-69

SEVARA QODIROVA
СЕВАРА КАДЫРОВА


ZAMONAVIY
XOR MUSIQASIDA
FAKTURANING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ
ФАКТУРЫ
В СОВРЕМЕННОЙ
ХОРОВОЙ МУЗЫКЕ

1x
Q-69

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRILIGI
RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI
XOR DIRIJORLIGI KAFEDRASI

SEVARA QODIROVA
СЕВАРА КАДЫРОВА




ZAMONAVIY XOR MUSIQASIDA FAKTURANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Oliy va o'rta ta'lim muassasalari uchun
uslubiy qo'llanma*

ОСОБЕННОСТИ ФАКТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ХОРОВОЙ МУЗЫКЕ

*Методическое пособие для средних
и высших образовательных учреждений*

«Musiq» nashriyoti
Toshkent
2012



KBK: 85.(50‘)7

Q-69

Sevara Qodirova

«Zamonaviy xor musiqasida fakturaning o‘ziga xos xususiyatlari». O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika metodika va axborot markazi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi/Mas‘ul muharrir L.X.Djumayeva. Toshkent: «Musiqqa», 2012. 88 b.

KBK 85.(50‘)7

UDK: 7.071.4(092)

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy-uslubiy
Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

Mas‘ul muharrir:

L.X.DJUMAYEVA – professor

Taqrizchilar:

I.G.GALUSHENKO – s.f.n, professor

A.X.XAKIMOVA – s.f.n., professor

B.V.SHOMAHMUDOVA – v.b.professor

Ushbu uslubiy qo‘llanmada turli xalqlar, shu jumladan, o‘zbek milliy maktab kompozitorlarining zamonaviy xor asarlari materiallari asosida faktura turlari ko‘rib chiqiladi. Asosiy diqqat zamonaviy xor fakturalarininig o‘ziga xos shakllariga, original bayon etish usullari va ko‘pobrazli turlarning bog‘lanishiga qaratilgan.

Mazkur ish musiqiy akademik litsey o‘qituvchilari hamda kompozitorlik va musiqa nazariyasi mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan o‘quvchilar, oliy musiqiy ta‘lim muassasalarining xorshunoslik kursi o‘qituvchi va talabalari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek xor dirijorligi mutaxassisligi (shifr – 5150500) bo‘yicha ijrochilik tahlilini yoritishda tavsiya etiladi. Taqdim etilayotgan qo‘llanma xormeysterlarga ularning amaliy professional faoliyatlarida ham foydalidir.

В настоящем методическом пособии рассматриваются типы фактуры в современных хоровых произведениях на материале сочинений композиторов различных национальных школ, в том числе и узбекской. Внимание сконцентрировано на своеобразных формах современной хоровой фактуры, оригинальных способах изложения, многообразных типах их сочетания.

Данная работа предназначена преподавателям и учащимся музыкальных академических лицеев по специальностям композиция и теория музыки, педагогам и студентам музыкальных вузов в курсе хороведения, рекомендуется при написании исполнительского анализа по предмету специальности хоровое дирижирование. Предлагаемое пособие полезно также в методическом отношении хормейстерам в их практической профессиональной деятельности.

ISBN 978-9943-307-59-9

© «Musiqqa» nashriyoti, 2012.

© S.Qodirova, 2012.

KIRISH

Xorshunoslik kursida xor asarlari fakturasini o'rganish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xor fakturasi o'zining spetsifikasiga ega bo'lib, juda xilma-xil, bir ovozlikdan tortib ko'p ovozli musiqiy matoning turlicha ko'rinishlarini qamrab olgan. U ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, bugungi kunda ma'lum bir mazmun, ovozlar mutanosibligi, uni tashkil qiluvchi komponentlarning o'zaro aloqasiga bog'liqdir. «Faktura (lot. *faktura* — ishlab berish, *facto* — bajarayapman, qilayapman ma'nolarida) — musiqiy asarning texnik tuzumi, uning musiqiy matnini yuzaga keltiruvchi musiqiy talqin vositalarning yig'indisidir¹».

Tabiatan insonning kuylashi bir ovozlidir, xor san'ati esa jamoaviy talqin tamoyiliga asoslangandir. Ko'povozli xorning ilk ko'rinishi geterofoniya hamda jo'r ovozli polifoniya hisoblanadi. Musiqiy san'atning tarixiy rivojlanishi jarayonida xor fakturasi o'zgaruvchan, xilma-xil yozma usullar bilan boyitilib borib, zamonaviy musiqada yangi sifatlarni kashf etdi. Zamonaviy xor fakturasining asosiy qonuniyatlariga quyidagilar tegishlidir:

- tarixiy shakllangan faktura turlarining qo'llanilishi;
- aralash faktura turlarini egallash;
- xor fakturasida tembr-bo'yoqli faktorlarning o'sishi;
- yangi faktura turlarining yuzaga kelishi.

Zamonaviy xor fakturasining talqini xilma — xildir: monodiyalilik, o'ta ko'povozlilik, puantilizm, diagonallilik, sonorika — sonoristika, koloristika. Kompozitorlar tayanadigan asosiy shakl turlari o'zgarmasdan qoladi, ammo musiqiy til, garmoniya, kuychanlik, ritmika murakkablashadi. Shuningdek turli faktura echimlari yuzaga keladiki, ular idrok etishni kuchaytiradi. Misol tariqasida monodiyali, akkordli va polifonik ko'rinishga ega bo'lgan rechitativli xor fakturasini keltirish mumkin. Bu o'z navbatida stilistika, janr va kompozitor tafakkuri bilan bog'liqdir. Zamonaviy xor musiqasida xorning cholg'u sifatida qo'llanilishi ham uchrab turadi. Huddi rechitativli singari, cholg'u xor fakturasi tembrofonika bilan bog'liqdir. Zamonaviy musiqada tembrofaktura alohida o'ringa ega. «XX asr ikkinchi yarmidagi musiqiy tilda dastlab ijrochilar ijodiga tegishli bo'lgan: artikulyatsiya va tovush hosil qilish usullari unsurlarning rivoji birinchi o'ringa ko'tarildi. Og'zaki va grafik partituralar yuzaga keldi. Tovush parametrlarining jadal rivojlanishi sonorika — tembr effektlari musiqiy kompozitsiyaning asosiga aylangan tembrlar musiqasining paydo bo'lishiga olib keldi². Koloristik — sonarli usullar turli janrdagi asarlarda keng qo'llaniladi. Masalan: glissandoli xitoblar, nidolar, klasterlar ketma-ketligi, murakkab tovushlarda cho'zimli unli tovushlar, tasviriy usullar — qo'ng'iroq tovushini, qushlar sayrashini hosil qilish, yig'i-zorlanish effektlar, stereofonli effektlar — xor massalarida dialog va ovozlar ketma-ketligi, fonli effektlar — chapak, oyoq tovushlari, til yordamida tovushlar hosil qilish.

Zamonaviy xor asarlariga turkumlilik yoki kontsertlik xos bo'lib, turli janrlarning sintetik birlashishi va aralashuviga sabab bo'ldi. Zamonaviy xor yozuvining ahamiyatli tomonlaridan

¹ Живов В. Хоровое исполнительство. Теория. Методика. Практика. М., 2003, с.90

² Холопова В. Формы музыкальных произведений. СПб, 2001, с.

yana biri shundaki, bir asarning o'zida turli xildagi fakturalarning mujassamlanganligidir. Fakturaning tez – tez o'zgaruvchanligi, klasterlar naqdligi, aleatorika fragmentlari, metroritmik almashinuvlar, yagona metrning yo'qligi, ko'pladlik, ko'ptonallik – bularning barchasi asarning tovush xususiyatlarida murakkab masalalarni namoyon etib, xormeysterdan mazkur mavzuni o'rganishda uslubiy asoslangan va analitik yondashuvni talab etadi.

Xor san'atining barcha rivojlanish bosqichlarida asosiy masalalardan biri inson ma'naviy dunyosini boyitishga, insonga dunyoni o'rab turgan go'zallik, nafosatni idrok etishga undash. Shu munosabat bilan ko'p sonli zamonaviy xor adabiyotlari orasidan sharqona falsafiy mazmundagi, yuqori g'oyaviyligi bilan ajralib turuvchi M.Bafoevning J.Kamol she'ri asosida yozilgan «Alloma», P.Medyulyanovning Ahmad Yassaviy she'ri asosida yozilgan «Jemchujini mudrosti» («Donishmandlik durdonalari»), hamda A.Sokolovning «Poema na stixi F.G.Lorka», M.Shuxning «Iskusheniye svetlogo angela» asarlari tanlab olingan. Asarlardagi murakkab mazmun kompozitorlarning yangi faktura turlarini, yangi tovush imkoniyatlarini topishlariga turtki bo'ldi. Bu esa o'z navbatida xor ijrochilaridan talqinning zamonaviy usullarini, tembr tovush bo'yoqlari va ko'p tembrlilik, tovush hosil qilishning turli ifodaviy usullarini topishni talab etadi.

I BO'LIM.

XOR FAKTURASI ASOSIY TURLARINING XARAKTERISTIKASI

Xor asarlaridagi fakturalar cholg'u fakturalaridan farqlanadi. Bu o'z navbatida xor ijrochiligining bir qator o'ziga xosliklari bilan bog'liq.

1. Kuylovchi ovozning ovoz va texnik imkoniyatlari bilan bog'liq cheklanishlar

Ba'zi kompozitorlar xorga cholg'u orkestriga singari munosabatda bo'lishadi, biroq ovoz — bu cheklangan imkoniyatlarga ega va inson fiziologiyasi bilan bog'liq bo'lgan mayin va nozik cholg'udir.

Ma'lum baland yoki past tessituralarning tez sur'atda qo'llanilishi ovoz paylarining tez toliqishiga olib keladi, bu o'z navbatida tovush sifati va xor tuzilishining sofligida namoyon bo'ladi. Ba'zi asarlarda chetdagi registrnlarning asar boshlanishida, birinchi taktlaridanoq qo'llanilishi ijro uchun murakkab.

Xor ovozlarining diapazoni:

Soprano: 1-oktava «do»dan 3-oktava «do»gacha, ishchi diapazon: 1-oktava «mi»dan 2-oktava «lya»gacha.

Altlar: kichik oktava «fa»dan 2-oktava «fa»gacha, ishchi diapazon kichik oktava «sol»dan 2-oktava «re»gacha

Tenorlar: kichik oktava «do»dan 2-oktava «do»gacha, ishchi diapazon kichik oktava «mi»dan 2-oktava «lya», «lya»gacha.

Baslar: katta oktava «mi», «fa»dan 1-oktava «mi», «fa»gacha, ishchi diapazon katta oktava «fa», «sol»dan 1-oktava «re»gacha.

2. Xor tarkibi

Katta xor uchun yozilgan asarlar sifat jihatidan katta mustahkamlikni talab etganligi bois, kamer tarkibdagi xorlarda kuylanmaydi. Va buning aksi, kamer va akvarelli (xususan xor miniatyuralari) yangrashini talab etuvchi asarlar katta xorda tuslar mayinligini yo'qotadi.

Xorning son tarkibi:

Kichik xor 12 — 16 kishidan iborat

Kamer xor 20 tadan — 30tagacha kishidan

O'rtacha xor 40 tagacha kishidan

Katta xor 80 — 100 tagacha bo'lgan kishilardan iborat bo'lishi mumkin. Xor asarlarining fakturasi, shuningdek partiyalar soniga ham bog'liq, ular ikki, uch, to'rt ovoqli bo'lishlari mumkin, divisi (ovoz bo'linishi) qo'llanilishi natijasida 48 tagacha etishi mumkin (ikki — uch xorli asarlar).

3. Cholg'u jo'rligining mavjud yoxud mavjud emasligi

Zamonaviy xor musiqasida jo'rnavozlikning mavjudligi g'oya — fikrlarning ko'pqirraliligi bilan bog'liq ravishda xarakterlanadi. Ko'pincha kompozitor butun orkestrni emas, balki uning tarkibidagi ma'lum bir guruhlarini yoki cholg'ularni qo'llaydi. Kompozitorlarning orkestr guruhidan u yoki bu cholg'uni tanlashi xor va unga jo'r bo'luvchi cholg'u o'rtasida yangi va original munosabatlarni topishga bo'lgan intilishga qaratiladi.

Cholg'u jo'rligining yo'qligi ijrochi oldiga butun asar davomida saqlanib turadigan intonatsiyali tuzilmaning sofligiga katta e'tibor bilan bog'liq bo'lgan murakkab bir vazifani qo'yadi. Zamonaviy musiqada kompozitorlar ko'pincha temperatsiyalanmagan tartibga, shovqinli va stereofonli effektlarni ma'lum balandlikda va fiksatsiyasiz qo'llashga murojaat qilishadi. Kompozitorlarning cholg'u jo'rligisiz xor kuylarida zamonaviylikni qidirishlari xor matnini boyitsa, shu bilan birga yangrash jarayonini murakkablashtiradi.

4. Musiqiy va she'riy matnning o'zaro bog'liqligi

Xor asarlarining musiqiy shakl jihatidan tahlilida adabiy matn tahlili birinchi o'ringa qo'yiladi, sababi so'zli matn musiqiy shaklga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Matn va musiqa o'rtasidagi munosabat mazmun, janr, kompozitorning o'ziga xos idroki bilan bog'liqdir. Ifodaviy vazifalarni ovozlar o'rtasidagi faktura — funktsionalli aloqalar variantlari (masalan, xor partiyalarida ritmik nomutanosibligini bajaruvchi turli metroritmik tuzilmalarning o'rni) o'sib boradi.

XX asr musiqasida ko'plab zamonaviy kompozitsiyalarda uchraydigan turli xil ifodaviy-tasviriylar, glissandoli nidolar, rechitativlik, sonori (tembrli) effektlar qo'llaniladi.

V.Xolopovning aniqlashicha: «Faktura — ovozlar o'rtasidagi xarakter va o'zaro aloqalarni inobatga oluvchi musiqiy mato tuzilmasidir». Xor fakturasi tahlilida biz uni quyidagicha ko'ramiz: 1) tuzilma turli xil fakturalarning qo'llanilishi (geterofonli, polifonik, gomofonli va b.); 2) ovozlarining ham son jihatidan (uch, to'rt ovozli faktura va b.), ham ovozlarining mavzuiylik ahamiyatliligi jihatidan o'zaro aloqasi; 3) xarakter — obraz — janrli, tematika bilan bog'liq faktura. Faktura biror bir tarixiy yoki milliy uslubning ifodasi bo'lishi mumkin.

II BO'LIM. ZAMONAVIY XOR ASARLARINING FAKTURA TURLARI

Fakturaning kuychan monodiyali turi — kuyning bitta xor partiyasida kelishi. Misol tariqasida V.Gavrilinning «Harbiy qo'shiqlar»idagi №7 baslar xorini keltirishimiz mumkin. Bu erda kompozitor tabiiy ladli melodizm qo'llaydi. Bu kabi faktura turi asosan halqona tasvir (bo'yoq)ni ifoda etish maqsadida qo'llaniladi:

♩ = 60

1



По-шёл сол-дат, да о-гля-нул-ся, встал на о-ко-ли-це се-ла. И тут над кры-ше-ю те

2



со-вой звез-да вы-со-ка-я воз-шла, и тут над кры-ше-ю те-со-вой звез-да вы-со-ка-я воз-шла.

Zamonaviy xor musiqasida ba'zan monodiyali fakturaning differensiyalangan turi uchrab turadi. Uning mohiyati shundaki, undagi alohida so'zlar yoki bo'g'inlar divizi(divisi)lar partiyalari bo'yicha moslashtiriladi. Bu kabi fakturaga N.Sidelnikovning «Razboynaya pesnya»sining boshlanish qismi misol bo'la oladi. I Baslar partiyasidagi kuy II Baslarga o'tadi va ketma-ket bir partiyadan ikkinchi partiyaga o'tib yagona mazmunli yo'nalishni tashkil etadi. Shu tariqa, bas partiyalarining ichki faol harakati tufayli musiqaning tegishli xarakteriga erishiladi:

Allegro e leggiero



Ты взой-ди, крас-но сол... ты взой-ди, ты взой-ди, нуш-ко. ты взой-ди.

Bir nechta partiyalardagi unison kompozitorlar tomonidan tembrlarni aralashtirish orqali qo'llaniladi. Bu kompozitorning fikriga ko'ra bir xildagi, yoki turli xildagi tembrlarning birlashmasi bo'lishi mumkin. Masalan, F.Pulenkning «Messe en sol majeur»dagi Agnus Dei xorida soprano va baslarning turli xildagi tembrlarini birlashtiradi, so'ng ular bir xildagi (soprano va tenor) tembrlar bilan almashtirilib, keyinchalik turli uyg'unlikda beriladi. Fakturaning mazkur turi tembr bo'yoqlarning yuksak xilma-xilligiga erishish imkonini beradi:

[Tres pur, tres clair et modere] ♩ = 64

tutti *p* 2 tutti *f*

Soprano
Alto
Tenor
Bass

A - gnus A - gnus De - i A - gnus De - i

2. *pp tres sourd.*

S.
A.
T.
B.

gnus De - i gnus De - i gnus De - i gnus De - i

Qui tol - lis pec - ca - ta mun - di

Xoral tuzilmali faktura xoralga spetsifika jihatdan o'ziga monand bo'lgan monoritmik asosdagi mavzuiylikka asoslanadi.

Divisilarning qo'llanilishi kuy yo'nalishining ko'p qirraligi munosabati bilan ulkan musiqiy talqinni yaratishga imkon beradi:

27 *f subito*

S.
A.
T.
B.

San - ctus Do - mi - nus De - us Do - mi - nus

San - ctus Do - mi - nus De - us Do - mi - nus

San - ctus Do - mi - nus De - us Do - mi - nus

San - ctus Do - mi - nus De - us Do - mi - nus

San - ctus Do - mi - nus De - us Do - mi - nus

Gomofon – garmonik faktura – kuy davomida asosiy ovoz etakchi, qolganlari qoida bo'yicha ko'p ritmli garmonik fonni tashkil etuvchi ovozlarning birlashmasidir. Zamonaviy xor partituralarida bu kabi faktura tez-tez uchrab turadi. Unda jo'r ovozlar monoritmik ostinatoli tuzilmaga ega bo'lsa, yakkaxon partiya R.Manuelning «Alleluia» xoridagi singari ritm jihatidan harakatchanligi bilan ajralib turadi:

Reverently

Ralph Manuel

The image shows a musical score for a four-part setting of 'Alleluia' by Ralph Manuel. The score is written for Soprano (S), Alto (A), Tenor (T), and Bass (B) voices. The key signature is three sharps (F#, C#, G#) and the time signature is 4/4. The tempo/mood is marked 'Reverently' and the dynamics are 'mp' (mezzo-piano) for the Soprano and 'p' (piano) for the other parts. The Soprano part begins with a melodic line that includes a long note and a phrase 'O!'. The other parts provide harmonic support with a steady eighth-note accompaniment. The lyrics 'Al - le - lu - ia' are repeated across six measures.

S

mp

Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia. Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, O!

A

p

Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia,

T

p

Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia,

B

p

Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia,

Imitatsion polifoniya – turli ovozlarda bir mavzuning yangrashiga asoslanadi. Turli xil imitatsiyalarning qo‘llanilishi xor ijrosiga yorqin musiqiy obraz, tembrli bo‘yoq baxsh etadi. Misol tariqasida R.Manuelning «Alleluia» xoridan musiqiy parcha keltiriladi:

S. *cresc.* *div.* *f* Al - le - lu -
 ia! Al - le - lu - ia Al - le - lu - ia Al - le - lu - ia.
 A. *f* Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia,
 T. *f* Al - le - lu - ia Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu -
 B. lu - ia Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu - ia, Al - le - lu -

Imitatsiya vositasi orqali aks — sado (exo), birin — ketin keladigan ayrim effektlarni vujudga keltiruvchi faktura zamonaviy xor musiqasida keng tarqalgan faktura turlaridan hisoblanadi. Fakturaning bu turi asosan kompozitorlar tomonidan janrli bo‘yoq, tabiatning lirik tasvirini aks ettirish uchun foydalaniladi. V.Rubinning «Veselimsya krujimsya» xorida xalq xayotining rang-barang chizgilari yorqin namoyon etilgan. Xor ovozlarning bir — biri bilan jo‘rlashishi quvnoq xorovod holatini yuzaga keltiradi.

Мальчишки да девочки

S. Маль - чи - ки да де - воч - ки, А... а...

A. А Маль - чи - ки да де - воч - ки, яс - ны - е звез - доч - ки,

T. Маль - чи - ки да де - воч - ки, А... яс - ны - е звез - доч - ки,

B. А Маль - чи - ки да де - воч - ки, а...

S. яс - ны - е звез - доч - ки. Крас - но - е сол - нце, а...

A. а... А... Крас - но - е сол - нце,

T. а... Крас - но - е сол - нце, а...

B. яс - ны - е звез - доч - ки. А... Крас - но - е сол - нце,

Kontrastli polifoniya – bu kontrast ovozlarning uygʻunligidir. Yondosh kuyga ovoz yoxud joʻr boʻlayotgan kuyning oʻziga xosligini ifoda etadi, yoxud mavzu jihatidan mustaqil boʻlib, ifodaviyligi nuqtai nazaridan asosiy kuyga oʻrin bermaydi. Har bir partiyaning mustaqil boʻlishi xorning umumiy yangrash, ajoyib ichki yaxlitligi va ovozlarning uyushqoqligi bilan ajralib turadi. Misol tariqasida F.Yanov-Yanovskiyning «In Memoriam» asari oʻrta qismini keltirishimiz mumkin:

D

S. *p*
Chris - te e - le i - son, Chris - te e - le - i - son. Chris - te, Chris - te

A.
Chris - te e - le - i - son. Chris - te, Chris - te

T. *p*
e - le - i - son, e - le - i - son, Chris - te e - le - i - son, Chris - te e - le - i -

B.
e - le - i - son. Chris - te, Chris - te, Chris - te,

Joʻr ovozli polifoniya – kuyning bir vaqtda turli variantlardagi talqinidir. Ular asosiy ovozga ham tayanch, ham qarama – qarshi boʻlishi mumkin. Fakturaning bu turi lirik – falsafiy, refleksli holatni namoyon qilish uchun qoʻllaniladi. S.Slonimskiyning «Pechalnoe serdse moe» xorida vokaliz joʻr ovozlardan foydalanish xor kuyining ifodaviyligini kuchaytiradi:

Andante (solo) *pp* *cant.* *pp* *p* (tutti)

S A T B

А - Пе чаль-но-е серд-це мо-е, пе- чаль-но-е серд-це мо- е... (закр. ртом)

А - (закр. ртом)

(solo) *mf* *cant.* Пе- чаль-но-е серд - це мо- е, ах,бе-зо

Koʻp hollarda zamonaviy xor musiqasida ovozlarning quyuqlashuvini hosil qilish maqsadida xor ovozlari sekin – asta qoʻshilib boruvchi va buning aksi, asta – sekinlik bilan soʻnib boruvchi akkord qatlamli faktura uchrab turadi. Akkordli fakturada xor ovozlarning ketma – ket qoʻshilishi dinamik yangrash va uning mustahkamligini kuchaytirishiga zamin yaratadi. Misol sifatida D.Omonullayevaning xor uchun simfoniyasidan IV qismini keltirishimiz mumkin. Unda xor tarovatining mustahkamligi sheʼriy matnning obrazli mazmunini aks ettirishga imkon beradi:

f *cresc.*

S A T B

О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, май - са-миз эй дўст.

О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, май - са-миз эй дўст.

О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, май - са-миз эй дўст.

О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, О - ки-бат туп - роқ - миз, май - са-миз эй дўст.

M.Bafoyevning «Alloma» poemasidan «Bogʻdod» xorida ovozlarning qoʻshilishi va fakturaning mustahkamligi bilan bogʻliq mantiqiy ijrochilik masalalari aralash yozuv turi yordamida hal etiladi. Ovozlarining imitatsiyali oʻtilishi vertikal tizimni hosil qiluvchi mustahkam akkordga mujassamlanadi:

Allegro

S. A. T. B.

p *tr*

Са-лом бўл-син са-лом сен-га Бағ-до-ди ша-риф. Са-лом бўл-син са-лом сен-га Бағ-до-ди ша-риф.

Ҳар суб-ҳи-дам қу-ёш ў-зи бо-нинг уз-ра тож.

S. *f* Хо-риб чар-чаб кар-вон кел-ди дар - во-занг-ни оч.

A. *mf* Не ша-хар-лар ич - ра сен-сан зе - бо ва за - риф. Не ша-хар-лар ич - ра сен-сан зе - бо ва за - риф.

T. Хар суб-хи-дам ку - ёш ў - зи бо-шинг уз - ра тож. Хар суб-хи-дам ку - ёш ў - зи бо-шинг уз - ра тож.

B. Са-лом бўл-син са-лом сен - га Баг - до - ди ша-риф. Са-лом бўл-син са-лом сен - га Баг - до - ди ша-риф.

Zamonaviy a'capella xor musiqasida ba'zi ovozlarda imitatsion uslublarning rivojlanishi va ba'zilarida akkordli tuzilmaning uyg'unlashishga asoslanuvchi fakturaning aralash turi uchrab turadi. Masalan, R.Hedrinning «Evgeniy Onegin» Strofalaridan «Moi bogini» xorida T va Alarning turdosh bo'lmagan ovozlarda komplementar tipidagi bir – birini to'ldirib turuvchi erkin imitatsiyalar S i B partiyalaridagi akkordlar divisisi bilan juda mos birlashtirilgan:

S. *ppp* (quasi eco) Что вы? где вы? *pp* Что вы? где вы?

A. Бо-ги - ны! *ppp* бо-ги - ны! *pp* бо-ги-ны!

T. Мо-и бо-ги-ны! *pp* Мо-и бо-ги-ны! *pp* Мо-и бо-ги-ны!

B. *pp* Что вы? где вы? *pp* Что вы? где вы?

Nutqli deklamatsiya – tembr artikulyatsiyali va nutq ifodaviyligining dinamik vositasi asos bo'luvchi bastalash uslubi. U ma'lum balandlikdagi tovushning aniq nuqtasi bilan ham qo'llaniladi va aksi.

T. Solo *mf* Як дам ра-вон шав қа-дат бу-би - нам ту нав жа-во -

T. *tr* Ер Ер

T. II Гулмомо ин - жо би-ё би-ё

B. Solo *mf* Як дам ра-вон шав қа-дат бу би - нам ту нав жа во - ни

B. *tr* Ер Ер Ер

B. Гул мо-мо ин - жо би - ё би-ё

D.Omonullayevaning xor uchun simfoniyasining I qismida aleatorika yozuv uslubidan foydalanilgan. Tenor va altlar partiyasida kompozitor qoʻllagan tovushlar kuychanligiga asoslangan takrorlanuvchi figuratsiya, baslar partiyasida ostinato, soprano va yakkaxon partiyalari orasida kanon xarakterli imitatsiyaviy oʻtishlar yangraydi:

5

Soprano (S): Кўк - сим-да йиғ - ла-ган қум-рим-дан ўз - га. Кўк - сим-да

Alto (A): Кўк - сим-да йиғ - ла-ган қум-рим-дан ўз - га.

Tenor I (T I): а..

Tenor II (T II): а..

Bass (B): а..

Diagonal dinamik klasterli faktura – diagonal boʻyicha harakatlanuvchi dinamik bosim va pulsatsiyani vujudga keltiruvchi klaster. Diagonal faktura zamonaviy kompozitorlar tomonidan qoʻllaniladigan keng tarqalgan yozuv turidir. Misol sifatida A.Shnitckening REQUIEMidan Kyrie № 2.

Majmuiy koʻp ovozli fakturaga K.Penderetskiyning «Xeruvimskaya pesn»dagi mustaqil kuy ovozlarini yagona tovushlar olamiga birlashtiruvchi koʻp ovozli mato qiziqarli misol sifatida koʻrsatilishi mumkin. Bu kabi yozuv turlarida alohida ovozlar orasida har xil aloqalar yuzaga kelishi mumkin: unisonlar, ikkilanishlar, imitatsiyalar, turli mavzuiylik.

Largamente

The musical score is for a vocal ensemble with 12 parts (Soprano, Alto, Tenor, Bass) and piano accompaniment. The score is in 3/4 time, key of B-flat major, and marked 'Largamente' and 'ff'. The lyrics are 'ja - ko da ca - rja'.

The vocal parts are arranged in four groups of three (Soprano, Alto, Tenor, Bass). The piano accompaniment is in the right hand, and the vocal parts are in the left hand. The lyrics are 'ja - ko da ca - rja'.

Agarda ko‘pvozli faktura mavjud bo‘lgan asarda qarama-qarshi mavzular eshitilsa, demak bu erda polifonik qatlam haqida so‘z yuritiladi.

O‘ta ko‘p ovozli faktura xromatik oqim bo‘yicha harakatlanuvchi va yagona tovushlar yig‘indisi sifatida idrok etiluvchi cheksiz ovozlar miqdoridir.

III BO'LIM.

ZAMONAVIY XOR ASARLARIDA FAKTURA TAHLILI

Zamonaviy xor asarlarida ko'p hollarda bir asarning o'zida fakturaning turli ko'rinishlari qo'llaniladi. Bu o'z navbatida kompozitorni she'riy matnga nisbatan munosabatini erkin ifodalab berish, ko'rish va o'qish uchun ko'p imkoniyatlarni yaratadi. Bu kabi holatni tanlab olingan bir necha asarlar tahlilida ko'rishimiz mumkin.

Mustafo Bafoyevning Jamol Kamol so'zlari asosida Al-Xorazmiy xotirasiga bag'ishlangan a'capella xori va yakkaxon uchun poema-kantatasi

Mustafo Bafoevning Jamol Kamol so'zlari asosida Al-Xorazmiy xotirasiga bag'ishlangan a capella xori va yakkaxon uchun poema-kantatasi kompozitorning o'ziga xos xor idroki, xor yozuvi borasidagi yorqin iste'dodidan dalolat beradi. Ushbu asarning ahamiyatliligi – o'zbek xor musiqasining janr – uslubli muhitining yangilanganligi, xor yozuvining faktura turlari, tembr – bo'yoqli ifoda vositalari bilan boyiganligidadir. Shu ma'noda Bafoev ijodi musiqa madaniyatida xor san'ati rivoji nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir.

Poema-kantata arifmetika va algebra, astronomik va matematik geografiya rivojiga ulkan hissa qo'shgan, IX asrning buyuk olim va donishmandi hayoti haqidagi, har bir qismi umumiy mazmunga asoslangan olti qismli turkumdir. M.Bafoev asarida ichki va tashqi masofalar, Al Xorazmiyning boy ko'ngilli hayoti, uning fikr-mulohazalari bir-birlariga muvofiq tarzda uyg'unlashtirilgan. Xor san'atining ifodaviy imkoniyatlari kompozitorga buyuk olim va riyoziyot fani targ'ibotchisini yorqin shaxs sifatida ko'rsatishga imkon beradi. Kompozitor har bir qismga uning mazmunini aniq ochib beruvchi nomlar bergan.

1 qism «Debocha», 2 qism – «Jayhun» («Amudaryo»), 3 qism – «Bog'dod», 4 qism – «Tafakkur», 5 qism – «Shom», 6 qism – «Abadiyat».

1. Debocha

Hayol qushim, anvo qushim moziylarga uchaqol,
Moziydadir mening hushim, sen ham endi ko'chaqol.
Shu jismimiz shu jonimiz, bobolardan xotira,
O'sha davron, o'sha yeru samolardan xotira.
Hayol to'la ko'zimiz ham o'shalarning ko'zidir,
Savol to'la so'zimiz ham o'shalarning so'zidir.
Daryo oqib ketdi, lekin qirg'og'ida dur qoldi,
Yulduz uchib so'ndi lekin ko'zimizda nur qoldi.
Hayol qushim, anvo qushim, moziylarga uchaqol,
Moziydadir mening hushim, sen ham endi ko'chaqol.

2. Jayhun – Amudaryo

Munavvar tong, ajoyib kun,
Ufqlar shu'ladin gul – gun,
Oqar to'lqin, urar Jayhun,
Bedordek pishqirar Jayhun,
Bulutga o'shqirar Jayhun.
O'tar karvon, ketar karvon,
Vatanni tark etar karvon,
Uzoq yillarda sargardon,
Uzoq cho'llarda sargardon,
Yurib qayga etar karvon.
Tinimsiz chayqalar daryo,
Tinimsiz chayqalar dunyo.
Muhammad otli bir o'g'lon,
Vatanni tark etar e – voh.
Oqar yo'llar, esar ellar,
Va lekin ota manzillar.
Muhammad qalbidan o'chmas,
Muhammad qalbidan ko'chmas,
Quyundek o'tsa ham yillar,
Quyundek ketsa ham yillar,
Muhammad qalbidan o'chmas.
Munavvar tong, munavvar kun,
Ufqlar shu'ladin gul – gun,
Oqar to'lqin, urar Jayhun,
Damodam pishqirar Jayhun,
Bolam deb qichqirar Jayhun.
Bolam deb qichqirar Jayhun.

3. Bog'dod

Salom bo'lsin, salom senga Bag'dodi sharif.
Har subhidam quyosh o'zi boshing uzra toj.
Ne shaharlar ichra sensan zebo va zarif.
Horib, charchab karvon keldi darvozungni och,
Darvozungni och, darvozungni och.
Kelayotgan ne karvonlar ichra bu tanho,
U kelmishdir sharofatli Gurganj tarafdan.
Sharifdirsan, vale quruq qolmagaysan, to,
Istiqboldan tug'ilajak yangi sharafdan, yangi sharafdan.
Karvon bilan ostonangga kelmish bir bola.
Uning ma'sum ko'zlarida hayrat va quvonch.
Shu o'g'loning baxti endi senga havola.
Umringga u umr qo'shar darvozungni och,
Darvozungni och, darvozungni och.
Bag'dod sharif boshingda u yangi bir xurshid,
«Baytul hikmat» osmonida porlaydir abad.
Senga shuhrat esa o'sha Horun ar Rashid,

Sharaf bo'lar Xorazmlik buyuk Muhammad.
Xayol bilan samolarda bir kun charx urar.
Zaminni ham o'lchab chiqar quloch va quloch.
Hozircha u mushtdek bir jon poyingda turar.
Ko'pam uni kuttirmagil, darvozungni och,
Darvozungni och, darvozungni och.

4. Tafakkur

Yillar o'tabardi shoshqin betoqat,
Har kuni ko'zidan oqdi nur.
Unga odat bo'ldi, unga saodat,
Tafakkur, tafakkur, tafakkur.
Dunyoni o'lchashga etdi u jur'at,
Sovuq raqamlarga joyladi shuur.
Unga tayanch bo'ldi ham buyuk qudrat,
Tafakkur, tafakkur, tafakkur.
Hisob darsligini berdi insonga,
Basharga baxsh etdi quvonch va g'urur.
U meros qoldirdi jumlai jahonga,
Tafakkur, tafakkur, tafakkur.

5. Shom

Ilmi riyoziyotni olamga u baxsh etdi,
Yillar o'tdi alloma hayot shomiga etdi.
Alif qaddi bo'ldi dol, ko'zidan o'chdi uyqu,
Uni chulg'adi xayol, sog'inish degan tuyg'u.
Mashriq ufqiga boqib xo'rsinadi jigaxun,
Qaylardasan Xorazm, qaylardasan ey Jayxun.
Mana tun og'ushiga kirar Bag'dodi Azim,
Qaylardasan ey Jayxun, qaylardasan ey Xorazm.
Hayot shomiga etib, tanidan ketib majol,
Yurtini sog'inardi, vatanni qo'msardi chol.


6. Abadiyat

To ko'kda quyosh bor er sahnida inson,
Olamda yasharsan Allomayi davron.
Yozgan u kitobing olamga xitobing,
Hikmatli hisobing gavhar to'la ummon.
Nomingni etib yod, ruhingni etib shod,
Yurting yana obod yashnaydi durahshon.
Al-Xorazmiy allomayi davron,
Al-Xorazmiy naslingga sharaf-shon.
Muhammad Ibn Muso Al-Xorazmiyga sharaf!

Turkumning birinchi qismi «Debocha» (Andante molto) – asarning obrazli dunyosiga, she'riyatiga kirish bo'lib, muqaddima vazifasini bajaradi. № 1 mazmun chuqur falsafiy

mantiq, obrazlarning semantik ko'p ahamiyatliligi, olimning ma'naviy chirog'i bilan to'ldirilgan. Turkumning mazkur qismida kompozitor aralash yozuv turini qo'llaydi. Bu erda M.Bafoev monodik fakturani polifonik bilan mos tarzda birlashtirib, shu orqali musiqada jonli harakatga, shuningdek bas partiyasida pedal yordamida ushlab turiluvchi, lo'nda qilib ifodalangan motiv uyg'unlikka erishadi.

№ 1 tuzilmaning boshlanishidanoq M.Bafoev — xromatizatsiyali unsurlar, mayin sirpanuvchan yarimtonliklar, unli «A» tovushiga vokalizatsiya ko'rinishida linear-garmonik yozuv turidan foydalanadi. Bunday uslub Al-Xorazmiyning qalb kechinmalarini keng samoda, dunyo okeanida kezib yurgan manzarani vujudga keltiradi:



Xor partiyalarining o'rta va pastki registrlar bilan chegaralanishlarida aniq ovoz yaxlitligini yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

8-taktdan yakkaxon xonandaning nutq deklamatsion xarakterli erkin kuyi boshlanishi bilan xor fakturasi fon vazifasini o'taydi. T va A partiyalarida uzoq ushlab turiluvchi pedal tovushlar abadiylik obrazini, ajdodlar xotirasini ramziy aks ettiradi. 16-taktdan bu obraz o'zgaradi. S partiyasida berilgan o'n oltitaliklardagi vokalizlar daryo oqimini tasvirlab, bu obraz fakturali talqinda moddiylashib zichlantiriladi, ayollar xori to'rt ovozli divisi fakturali tovushidan T partiyasini divisilari bilan, oldin S va A bir-biriga yo'naltirilib, keyin ayollar va erkaklar partiyalari orasida yangraydi.

Natijada, bularning hammasi o'rta qismda yorqin kulminatsiyaga erishiladi, kompozitor xor vositalari orqali suv toshqini harakatini ifodalaydi:

Solo B

7

Дар - е о - қиб

S, A, T, B. partiyalarining bir-biriga ulanib ketuvchi ostinatli yangrashidan yuzaga kelgan xor talqini jo'shqin daryo toshqini, hamda qahramonning qalb kechinmalarini ifoda etadi. Yakkaxon partiyasida ritmli nutqning qo'llanilishi dramatik bosimni kuchaytiradi.

Avj rivojida M.Bafoev fakturaning kengaytirilgan uslubini barcha partiyalarda divisilar qo'llab, shu orqali kuychan, gorizontal fakturali unsurlar vertikal holatga o'tishiga erishadi. Unison tarzida yangrayotgan barcha partiyalarning akkord tuzilmalarida qo'llanilganligi umumiy munozaraga olib keladi. Bu uslub shuningdek «Bog'dod» va «Tafakkur» qismlarida ham qo'llaniladi:

Turkumning 1-qismida keltirilgan faktura unsurlari keyingi rivojlov uchun muhim ahamiyat kasb etib, poema-kantataning ichki yaxlitligini ta'minlab beradi.

№ 2 «Jayhun» (Allegretto) turkumning mazmun rivojini manzara she'riyatning maishiy janrli dunyosiga o'tkazadi. Bu sahro tekisliklari bo'ylab oqayotgan va insonlarga hayot bag'ishlayotgan daryo timsolidir. Turkumning bu qismida M.Bafoev ovozlari uyg'unlashuvi uchun turli unsurlarni qo'llaydi. Shu orqali impressionistik bo'yoq va ifoda vositalari boyligiga erishadi. Umumiy ansambl ko'rinishida har bir xor partiyasi o'z vazifasini ado etadi:

Ko'p ohangli faktura uch qatlamga bo'linadi: B partiyasining katta oktava «lya» notasidagi «Dum...» ostinatosidan va T partiyasidagi kuychan – garmonik figuratsiyalardan tuzilgan polifonik ikkiovozlik; etakchi S partiyasi va kuy «lentasi» ko'rinishidagi A partiyasidagi unli «A» tovushidagi xorning to'laqonli yangrashini ta'minlab beruvchi monografik vokalizatsiya. Bunday talqin kompozitorga Sning yorqin – bo'yoqli, relyefli yangrashiga, T partiyasining engilligiga, B partiyasining teranligiga, A partiyasining nafisli yangrashiga erishishiga imkon beradi.

2-raqamdan ikki qatlam yangray boshlaydi: asosiy mavzu B partiyasining divisilari bilan mustahkamlangan holda T partiyasida yangraydi, ayollar ovozdagi cholg'u musiqa o'rta va pastki registrlarda to'ldirilgan tembr bo'yoqlilikni vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Birinchi bo'limning avj nuqtasida kompozitor xor yozuvining garmonik turidan foydalanib, avjni yorqin va keng ko'rsatish imkoniyatiga erishadi:

4

Му - ҳам - мад от - ли бир_ ўг - лон ва - тан - ни тарк э - тар_ э - воҳ Му - ҳам -

Му - ҳам - мад от - ли бир_ ўг - лон ва - тан - ни тарк э - тар_ э - воҳ Му - ҳам -

ўг - лон Му - ҳам - мад от - ли бир_ ўг - лон ва - тан - ни тарк э - тар_ э - воҳ Му - ҳам -

Му - ҳам - мад от - ли бир_ ўг - лон ва - тан - ни тарк э - тар_ э - воҳ Му - ҳам -

Barcha partiyalarda divisilarning qo'llanilishi, xor jamoasining to'liq yangrashini mazkur qismning obrazli mazmunini ko'rsatib berishga yo'naltirilgan: Muhammad ismli bola karvon yo'llari bo'ylab, buyuk Bog'dodni – ilmlar xaramini egallash maqsadida ona yurtini tark etadi.

5-raqamdan kompozitor xor kuyining tasviriyl imkoniyatlaridan foydalangan holda vokalizlar orqali yakkaxon partiyasini kuchaytiradi. Taqdirning sinovlariga hamda begona yurtlarda to'qnash keladigan qiyinchiliklarga hamdardlik bildirayotgandek, daryo bolakay bilan go'yoki vidolashadi. M.Bafoyev dastavval mayin yangrovchi divisilar bilan ayollar xorini qo'llaydi.

mf

О - қар йўл - лар э - сар ел - лар ва ле - кин о - та ман - зил - лар

So'ngra, qo'shiladigan erkak ovozlar yangrashini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi. B, T, A partiyalaridagi ushlab turiladigan pedal yangrash va S partiyasidagi ostinatoli figuratsiyalar obrazning psixologik mazmunini, uni ushlab turuvchi substansiyaning yanada yorqinroq, bo'rttirib ko'rsatishga imkon beradi.

Poema-kantataning 3-qismi «Bog'dod»dir. Hodisa IX asr boshida savdo-sotiq, ilm, madaniyatning muhim markazi hisoblangan, arab xalifaligining poytaxti Bog'dod shahriga olib o'tiladi. 786 yildan 809 yilgacha hukmronlik qilgan Horun ar-Rashid o'z davrida mashhur bo'lgan fanlar akademiyasi vazifasini bajaruvchi muassasa «Donishmandlar uyi»ga asos soladi. «Donishmandlar uyi» huzurida qadimiy qo'lyozma va astronomik observatoriya mavjud edi. O'spirin Al-Xorazmiy Bog'dodga kelib iste'dodli insonlar qurshoviga tushib, o'z iste'dodining rivojlanishiga ulkan imkon yaratadi.

№ 3 da musiqa cheksiz samoda porlab turgan buyuk shahar timsolini aks ettiradi. M.Bafoev yorqin, dinamik jihatdan to'ydirilgan tovush xususiyatini yaratib, fakturaning aralash tuzilmasini, polifonik va garmonik vazifalar uyg'unligini qo'llaydi. Imitatsiyali o'tishlar mustahkam akkordlarga birlashib, vertikalni hosil qiladi.

Allegro

T. *p* *tr*

B. *p* *tr*

S. *f*

A. *mf* *f*

T. *mf* *f*

B. *mf* *f*

Са-лом бўл-син са-лом сен-га Бағ-до-ди ша-риф

Хар суб-ҳи-дам қу-ёш ў-зи бо-шинг уз-ра тож

Са-лом бўл-син са-лом сен-га Бағ-до-ди ша-риф

Хор-иб чар-чаб кар-вон кел-ди дар-во-занг-ни оч

Не ша-хар-лар ич-ра сен-сан зе-бо ва за-риф

Не ша-хар-лар ич-ра сен-сан зе-бо ва за-риф

Хар суб-ҳи-дам қу-ёш ў-зи бо-шинг уз-ра тож

Хар суб-ҳи-дам қу-ёш ў-зи бо-шинг уз-ра тож

Са-лом бўл-син са-лом сен-га Бағ-до-ди ша-риф

Са-лом бўл-син са-лом сен-га Бағ-до-ди ша-риф

Mazkur qismni ikki bo'limda xorning to'liq yangrashini alohida ovozlarning guruhi ijrosi bilan almashinuvchi uch bo'limga ajratish mumkin. Birinchi bo'limda ayollar ovozi juda ham bo'yoqli yangraydi: S divisilari va A kuy chiziqlarining yo'g'onlashishi asosida yuzaga keluvchi va garmoniya hissini vujudga keltiruvchi engil sirpanuvchan akkordli ketma-ketliklar.

1 *p*

S
Ke - ла - ёт - ган не кар - вон - лар ич - ра бу тан - хо

A
Ke - ла - ёт - ган не кар - вон - лар ич - ра бу тан - хо

Huddi shunday faktura yangi tembrli ko‘rinishda erkaklar ovozi yangraydi: T divisilari va B:

4

The musical score for the 4th measure is shown. It features a treble clef (T) and a bass clef (B). The key signature has one flat (B-flat). The melody in the treble clef starts with a quarter note G4, followed by a quarter note A4, a quarter note Bb4, and a quarter note A4. The bass line in the bass clef starts with a quarter note G3, followed by a quarter note A3, a quarter note Bb3, and a quarter note A3. The lyrics are: Баг - дод ша - риф бо - шинг - да у ян - ги бир хур - шид.

Rivojlanish jarayonida yuzaga keluvchi erkak va ayollar ovozlari o'rtasidagi ketma-ket aytishuvlar dinamizatsiya va rang-baranglikka asos bo'ladi.

Yakuniy bo'lim barcha partiyalarda unison ijrosiga o'tib ketuvchi va xor ovozlarning so'navchi akkordli tuzilmaning qo'llanilishi bilan yakunlanadi.

Birinchi qism o'zini namoyon etgan linear – garmonik tuzilmali xor yozuvi turkumning har bir qismida badiiy-obrazlikni bajargan holda turlicha gavdalanadi. Linear – garmonik fakturaning o'zni №4 «Tafakkur» – Adagioda yuqori darajaga ko'tariladi. Ushbu qism bundan oldingisi bilan sekin sur'ati va obrazli tuzilmasi bilan farqlanadi. Bu qismga

kompozitor olim — donishmand yakkaxon xonandani kiritadi, borliqni o‘lchab, sovuq raqamlarga xo‘rsinib qo‘yadi. Tenorlar divisisi va Baslar partiyasi sof kvartali yovuz yangrash ostinatoli garmonik majmua kompozitor uchun holatni aks ettirishda gomofonik vosita hisoblanadi. Takrorlanuvchi ohanglar huddiki olimni tinimsiz kuzatib yuruvchi ilmiy fikrlarni bayon etadi:

Adagio

1 *f*

Solo

Йил - лар ў - та__

T *p* *div.* *mp* *mf*
Та - фак - кур та - фак - кур та - фак - кур. та - фак - кур

B *p* *mp* *mf*
Та - фак - кур та - фак - кур та - фак - кур. та - фак - кур

Mazkur qismning ikkinchi bo‘limida B, T va A partiyasida uchinchi qismda qo‘llanilgan aralash yozuv turidan foydalanilgan. Bu partiyalarning ritmik ostinatoli energiyali fonida S partiyasi kiradi, o‘zining ritmik munosabati bilan birinchi bo‘limdagi erkaklar ovozidagi mavzu bilan moslashadi. Ammo u turg‘un yangramasdan, balki bosqichma-bosqichli harakat evaziga shiddat bilan ohangni aks ettirib avjga tomon yo‘naltiradi:

mp *3* *3* *3* *3*

A Ун - га та - янч бўл - ди ҳам бу - юк қуд - рат

T *3* *3* *3* *3* *3* *3*
жой - ла - ди шу - ур со - вуқ ра - қам - лар - га жой - ла - ди шу - ур

B *3* *3* *3* *3* *3* *3*
эт - ди у журь - ат дун - ё - ни ўл - чаш - га эт - ди у журь - ат

mf

S. Та - фак - кур та - фак - кур.

A. *3* *3* *3* *3*
ун - га та - янч бўл - ди ҳам бу - юк қуд - рат

T. *3* *3* *3* *3*
со - вуқ ра - қам - лар - га жой - ла - ди шу - ур

B. *3* *3* *3* *3*
дун - ё - ни ўл - чаш - га эт - ди у журь - ат

Avjda barcha partiyalarda yangraydigan oktava-unisonli divisili akkord yozuv turi qo‘llanilgan. Oktava — unisonli faktura M.Bafoevda badiiy obrazning asosiy tezisi va bo‘limning avj shakli bilan bog‘langan.

Turkumning beshinchi qismi — «Shom». Turkumning bu qismida kompozitor kuychan, ritmik va garmonik figuratsiyalarni erkin qo‘llaydi. Faktura almashinishini M.Bafoev hayotiy tajribaga boy Al-Xorazmiy kayfiyati va ruhiy hissiyotlar chizgilarini namoyon etadi:

Andante molto *ff* *s*

S
A
T
B

Kirishdagi S, A. va T partiyalari orasidagi oktava-unisonli faktura bas – divisida ushlab turiluvchi oktavali unison fonida Xorazm, Jayhun bo‘ylab kezib yurgan olimning his – tuyg‘ulariga urg‘u bergan holda, katta ifodaviylik ahamiyatini kasb etadi.

Uni almashtiruvchi garmonik faktura rechitativ ohanglarda tuzilgan. Sopranolardagi divisilar, alt va tenorlar ushlab bosiq turiluvchi oktava-unisonli baslar fonida xor tuttilarini yuzaga keltiradi:

1 *p div.* *unis.*

S
A
T
B

Ил - ми ри - ё - зи - ёт - ни о - лам - га у бахш эт - ди йил - лар ўт - ди ал - ло - ма ҳа - ёт шо - ми - га ет - ди
Ил - ми ри - ё - зи - ёт - ни о - лам - га у бахш эт - ди йил - лар ўт - ди ал - ло - ма ҳа - ёт шо - ми - га ет - ди
Ил - ми ри - ё - зи - ёт - ни о - лам - га у бахш эт - ди йил - лар ўт - ди ал - ло - ма ҳа - ёт шо - ми - га ет - ди

Avjga olib keluvchi ohangning keskinligini kuchaytirish uchun kompozitor ayollar ovoqidagi yangrashni mustahkamlaydi, altlar partiyasiga divisilar qo‘shiladi, oktava – unisonli fonni tenor va baslarga teng taqsimlaydi.

Fakturaning keyingi almashinuvi olimning chuqur ruhiy holatiga qaratilgan. Xoral, vokal, qo‘shiq unsurlarining bir-biri bilan almashishi o‘ziga xos ifodaviylikni vujudga keltiradi. Alt va baslar partiyasida «u» unli tovushidagi kuy o‘zgacha kechki-osuda tasvirni namoyon etib, so‘ng ularning o‘rnida yakkaxon xonandani unisonga etaklovchi soprano I va tenor I partiyalari ichki ekspressiyani aks ettiradi:

4

S
A
T
B

қай - лар - да - сан Хо - ра - эм қай - лар - да - сан эй Жай - хун
қай - лар - да - сан Хо - ра - эм қай - лар - да - сан эй Жай - хун
қай - лар - да - сан Хо - ра - эм қай - лар - да - сан эй Жай - хун

Solo *mf* Ма - на тун о - гу - ши - га ки - рар Бар - до - ди А - зим

A. *y*

B. *y*

«Abadiyat» (Allegro) nomli oltinchi qism kelajakka intilishdir. Al-Xorazmiyning jahonga qarata bergan g'oyalari, cheksiz ummon misoli dono fikrlari – butun insoniyat faxridir.

Poema-kantataning finali hayotiy jo'shqinlikka to'la. Unda M.Bafoev fakturaning turli ko'rinishlaridan monodik, gomofon-garmonik, imitatsiya yozuv turini qo'llaydi. Kompozitor tomonidan qo'sh oktava-unisonli dublirovkalarining qo'llanilishi, asarning gumanistik g'oyasini tasdiqlashga urinish sifatida tushunish mumkin. Bunday usul boshqa qismlarning faqatgina avjini ajratib ko'rsatish uchun qo'llanilgan bo'lsa, finalda unison-oktavali qayta takrorlash birinchi taktlardayoq namoyon bo'ladi. Finalni bas partiyasi boshlab beradi, so'ng unga to'rtinchi taktdan altlar, sakkizinchi taktdan baslar va o'n ikkinchi taktdan soprano qo'shiladi. Xor unli «U» tovushida kvarta-kvintali yo'llar bilan Xorazm usulini badiha etib, yorqin milliy ko'rinishni namoyon etadi:

Allegro

A. *mp*

B. *p*

S. *f*

A. *mf*

T. *mf*

B. *mf*


Qayta takrorlashlar kompozitor tomonidan butun final davomida qo'llanilib, unda faqat ovozlarning ma'lum qismlari ikkilanadi, qolganlari esa o'z mustaqil yo'nalishini saqlab qoladi. Partiyalardagi divisilarning naqdligi, to'ydirilgan ko'povozli yangrashni taqozo etib, unisonga qaytadi va fakturalar almashinuvi, ya'ni imitatsiyalarga olib keladi:

S. *unis.* лам - да я - шар - сан Ал - ло - ма - йи дав - рон Ал - ло - ма - йи дав - рон

A. *unis.* лам - да я - шар - сан Ал - ло - ма - йи дав - рон Ал - ло - ма - йи дав - рон

T. *unis.* лам - да я - шар - сан Ал - ло - ма - йи дав - рон Ал - ло - ма - йи дав - рон *f* А

B. *unis.* лам - да я - шар - сан Ал - ло - ма - йи дав - рон Ал - ло - ма - йи дав - рон



Kuychan vokalizli figuratsiyalarga asoslangan imitatsiyalar ham oktava unisonga aralashadi. Ular avval erkaklar, so'ng ayollar partiyasida o'tadi. Imitatsiyalar kompozitor tomonidan avjga chiqish vaqtida kiritiladi.

Imitatsiyali, linear-bezakli, tembrli variatsiyalanuvchi oktava-unisonli, gomofon-garmonik bo'limlar haqli ravishda gomofon-garmonik qatlamga olib keladi. Bu o'z navbatida musiqiy shaklning kuchayishiga, qismning nafaqat she'riy mazmunini alohida ta'kidlab o'tishga, balki asarning bosh g'oyasini tasdiqlashga ham imkon yaratadi.

M.Bafoyevning «Alloma» xor partiturasining tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur asarda zamonaviy xor tafakkurining o'ziga xos belgilari namoyon etilib, xor yozuvining turli usullaridan keng foydalanilgan. Poema-kantatada musiqaning badiiy mazmunini ochib berishga yo'naltirilgan faktura usullari qo'llanilgan.

Faktura ko'p rejaliligi – partiyalarning murakkab ko'pqatlamlilikiga monodik va imitatsion bayon etish turlarining, ya'ni avjlar talqini, stereofonik unsurlar – bularning barchasi poema-kantata ahamiyatini zamonaviy xor musiqasining yorqin namunasi, o'zbek xor musiqasidagi ulkan yutuqlari ekanligini tasdiqlaydi.

P.Medyulyanovanning Ahmad Yassaviy so'zlari asosida aralash xor, yakkaxon tenor, tanbur, doyra va nay uchun yozilgan «Jemchujini mudrosti» asari

P.Medyulyanovanning Ahmad Yassaviy so'zlari asosida aralash xor, yakkaxon tenor, tanbur, doyra va nay uchun yozilgan «Jemchujini mudrosti» («Donishmandlik durdonalari») xor asari o'zining turli tuman xor fakturalariga boyligi bilan ajralib turadi. Unda gomofon-garmonik, polifonik, kuychan-figuratsiyali va ohanglarga betakror sharqona ranglar baxshida etuvchi yozuvning ornamental turi mujassamlangan.

Umuman olganda, mazkur asar rivojlantirilgan bir qismli kompozitsiya bo'lib, tarkibida to'rtta bo'lim mavjud. Asarni tenor solosi ochib beradi va o'z o'rnini tanbur ijrosiga bo'shatib beradi. Uning fonida o'rta registrda xor qo'shiladi. Kompozitor bu erda soprano partiyasini rang-barang ornamentlar bilan boyitib yozuvning gomofon-garmonik turini qo'llaydi:



5-raqamdan xor to'qimasi ovozlarni divisi va kvarta bo'ylab juftlanishi hisobiga mustahkamlanadi. Rivojlovning avj nuqtasida alteratsiyaning qo'llanilishi sadolanish ifodaviyligini kuchaytiradi. Taranglikning astalik bilan susayishiga kompozitor pedal tovushi yordamida ushlab turilgan kuyni qo'llash va fakturani siyraklashtirish orqali erishadi:

53 [6]

Танбур

С. О, дру-зья впол - не. а,

А.

Т. О, дру-зья впол - не. а,

Б.

Uchinchi bo'limda betakror rang-baranglik o'ziga diqqatni jalb etadi. Alt partiyasida ushlab turilgan kuy tarovati ostida tanbur aks sadosiga o'xshash soprano partiyasi yangraydi. Erkaklar ovozi qo'shilgach, xor ko'rinmas xoral turida yangraydi. Bu erda u jo'rlik vazifasini bajaradi, uning fonida doyra usuli relyef tarzda jaranglaydi:

63 [8] *p*

Дойра

С. у а, *p*

А.

Т. у а

Б.

Keyin vazifalar almashadi va endi doyra zarb berib xorga jo'r bo'ladi. Bu holat yaratgan nomidan berilayotgan so'zlarni tinglayotgandagi o'ziga xos yurak urishiga o'xshaydi. She'riy matnga e'tiborni tortishda bir turdagi ovozlardagi unison sadolanishga akkord tarzidagi boshqa ovozlarni qo'shilishi, so'ngra ularni umumiy unisonga kelishi juda qiziqarlidir. Unisonning astalik bilan rivojlanishi polimelodik (ko'p kuyli) to'qilmani tashkil etadi. Unda tenor va sopranolar pastga harakatlanadi, bas va baritonlar ushlangan pedal vazifasini bajaradilar, divisi altlar poliritmik birikishda melodik figuratsiyani bajaradilar. Keyin esa bas va alt partiyalari vazifasi almashadi. Divisi altlar garmonik tuzilishga qo'shiladi, melodik figuratsiya bariton partiyasiga o'tadi:

Музыкальный фрагмент, состоящий из пяти голосов: Дойра (Doyra), С. (Soprano), А. (Alto), Т. (Tenor) и Б. (Bass). Дойра играет на ударных инструментах. С. и А. поют в сопрано и альт-регистрах, Т. и Б. — в тенор и бас-регистрах. Музыкальная запись включает ноты, ритмические обозначения (например, 3) и динамические маркеры (a).

Bu holat xor fakturasini turli tarzdagi sadolanishiga turtki beradi.

To'rtinchi qismda ovozlardagi turli xil juftlanishlar birikmasiga asoslangan xor fakturasi usuli diqqatni jalb etadi: T va B larda oktavaga, S va A.lar sekstaga.

Bu holatdagi sadolanish muntazamligi Yassaviyning so'fiy falsafasi shoirona fikrlovchi, ya'ni insonlarni johillikdan tozalovchi va ma'naviy ulug'lanishi, yerdagi azob-uqubatlar, muhabbatni tasdiqlash uchun qaratilgan:

Музыкальный фрагмент, состоящий из пяти голосов: Най (Nay), Дойра (Doyra), С. (Soprano), А. (Alto) и Т. (Tenor). Най играет на духовом инструменте. Дойра играет на ударных инструментах. С. и А. поют в сопрано и альт-регистрах, Т. — в тенор-регистрах. Музыкальная запись включает ноты, ритмические обозначения (например, 113) и динамические маркеры (tr). Под текстом песни указаны русские слова: Зем ны - е му - ки и лю бовь знак о - чи - ще - ни - я от зла.

To'rtinchi qism yakunida tenor solosini yangidan tiklanganidan so'ng S va T partiyalari ilib oladi. A va Bning ushlangan oktava-kvintali birikishda sadolanishi fonida nay va doyradagi solo sharq durdonalari haqidagi falsafiy fikrlarga yakun yasaydi. Bu asarda xordagi ifodaviylik g'oyaviy-ahloqiy badiiy mazmunni chuqur ochilishiga asosiy omil hisoblanadi.

A.Sokolovning Federiko Garsia Lorka she'rlari asosidagi soprano, vibrafon va aralash xori uchun poemasi

Turkumda F.G.Lorkaning «Kante Xondo» she'rlar to'plamidagi asarlardan foydalanilgan. Unga to'rtta poema kiradi: «Sigiriyya — gitana», «Solea», «Soeta», «Petenera» va

